



INDIANA UNIVERSITY



UNIVERSITY OF
PORTSMOUTH



LOMONOSOV
MOSCOW STATE
UNIVERSITY



ZAPADOCESKA
UNIVERZITA
V PLZNI



Санкт-Петербургский
государственный
университет



УРАЛЬСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI INGLIZ TILI BIRINCHI FAKULTETI
UMUMIY TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

GLOBAL LINGVISTIKA: YANGI YONDASHUVLAR VA TADQIQOTLAR

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI



**29-aprel
2025-yil**

TOSHKENT SH. (O'ZBEKISTON)



Google
Scholar



Radjabova Khilola Abdurasulovna	
SUN'YI INTELLEKT TIZIMLARI UCHUN TIL VA MANTIQ MUNOSABATINING AHAMIYATI	1024
Rahimova Maftuna Odilovna	
INTEGRATIV YONDOSHUV ORQALI ISPAN TILI GRAMMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA ASOSLANGAN O'QUV MATERIALLARI VA DARS MODELLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI	1029
Safarova Nodira	
ФОРМИРОВАНИЕ УСТНОЙ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	1037
Сураганова Асем Мурат кызы	
ONA TILI TA'LIMIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHGA OID TAJRIBAVIY TADQIQ	1041
Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi	
DIGITAL LINGUISTICS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING.	1045
Uljayeva Shahzoda Turdalievna	
A NEW INTERPRETATION OF NON-HUMAN CONSCIOUSNESS IN SCIENCE FICTION: THE CASE OF NEAL ASHER'S POLITY UNIVERSE.	1047
Umarkulova Munira Zakhidjan kizi	
THE ROLE OF INQUIRY-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN SELF-STUDY EDUCATION	1053
Nargizakhon Khodjaeva Saydolim kizi	
STORYTELLING AND GAMES AS TOOLS OF TEACHING ENGLISH	1056
Nilufar Aliboyeva	
ЦИФРОВОЙ ДИАЛОГ: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.	1059
Атаханова Азиза Бобир қизи, Алимарданова Шахло Ашурмаматовна	
ОБУЧЕНИЕ ТОЧНОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ МЫСЛИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ГЕНЕРАЦИИ ИЗОБРАЖЕНИЙ В ЧАТ-БОТЕ	1062
Былёва Мария Михайловна, Сильвестрова Дарья Дмитриевна, Ольга Павловна Казакова	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УРОКОВ АНГЛИЙСКОГО: ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ, ОНЛАЙН-РЕСУРСЫ И ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	1066
Жураева Нигора Хамид қизи, Алимарданова Шахло Ашурмаматовна	
DEPENDENCY ON AI LANGUAGE TOOLS: A THREAT TO LINGUISTIC DIVERSITY?	1068
Mahmood Shaxlo Atabayevna	
РАЗВИТИЕ И ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКОВ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	1071
Митина София Юрьевна, Алимарданова Шахло Ашурмаматовна	
WHAT IS STORYTELLING AND HOW IT IMPROVES SPEAKING SKILLS AMONG A2 LEARNERS	1074
Najmiddinova Narmina Rustamovna	
СОЗДАНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПОРТРЕТА СТРАНЫ ИЗУЧАЕМОГО ЯЗЫКА СРЕДСТВАМИ АНИМАЦИИ	1084
Ситнева Арина Александровна, Никитина Софья Ильинична, Казакова Ольга Павловна	
A LINGUISTIC LOOK AT STRATEGIC CHARACTER OF ENGLISH PROVERBS	1087

ONA TILI TA'LIMIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHGA OID TAJRIBAVIY TADQIQ

Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nilufarturgunova20@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda ona tili ta'limida loyihaga asoslangan topshiriqlardan foydalanishga oid tajribaviy tadqiq mazmuni yoritilgan. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov jarayoni, tajriba-sinov materiallari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. 9-sinf Ona tili darslarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan o'quv loyihasining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan ta'lim, loyiha ishi, ona tili darslari, 9-sinf, individual loyiha, loyiha bosqichlari.

Loyihaga asoslangan ta'lim o'zining samaradorligi bilan barcha fanlarni o'qitishda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, ona tili ta'limida ham so'nggi yillarda nashr etilgan dastur va darsliklarda loyihaga asoslangan topshiriqlarga murojaat qilinmoqda. Loyihalar asosida o'qitish o'quv materialini o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga, ularda ijodkorlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Ona tili ta'limida loyihalar bilan ishlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik usullarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov jarayoni uchta hududdagi maktablarda olib borildi: Toshkent, Namangan va Qashqadaryo. Quyida tajriba-sinov materiallaridan birining mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Tadqiqot obyekti sifatida 8-9-sinflar tanlangan edi. 2024-o'quv yilining I choragida 9-sinf o'quvchilari bilan "Men tanlagan kasb" nomli o'quv loyihasi ustida ishlandi. Mazkur loyiha ishining qisqacha tasnifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

"Men tanlagan kasb" loyihasi	
Faoliyat turiga ko'ra	Ijodiy, tadqiqotchilik
Ishtirokchilar soniga ko'ra	Individual
Fanlar bilan bog'liqligiga ko'ra	Fanlararo (ona tili, tasviriy san'at, tanlangan sohalar)
Natija shakliga ko'ra	Mahsulotga yo'naltirilgan
Davomiyligiga ko'ra	O'rta muddatli (2-3 hafta)

Ma'lumki, maktab ta'limining eng asosiy vazifalaridan biri yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish, ularni katta hayotga tayyorlash hisoblanadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda loyiha mazmunini kasb tanlash mavzusiga bog'lashga harakat qildik.

“Men tanlagan kasb” loyihasining maqsadi o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, ularda turli kasb-hunarga qiziqish uyg‘otish, o‘zlari tanlagan soha bo‘yicha yaxshiroq tasavvur hosil qilishlariga qaratilgan bo‘lib, mazkur loyiha ishini bajarish davomida quyidagi ko‘nikmalar ustida ishlandi:

1. Nutqiy: og‘zaki va yozma nutq savodxonligi; o‘z fikrini aniq, tushunarli va ifodali yetkazib bera olish.

2. Lingvistik: til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, og‘zaki va yozma nutqda grammatik me‘yorlarga amal qilish, imloviy savodxonlik.

3. XXI asr ko‘nikmalari: mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, axborotlar bilan ishlash va ularni saralash, ijodkorlik.

Loyiha ishining muddati o‘rtacha 2-3 haftaga mo‘ljallangan bo‘lib, 6 ta bosqichdan iborat. Loyiha davomida o‘quvchilar “Men tanlagan kasb” nomli ijodiy albom tayyorlashlari lozim. Albom quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

Titul qismi	O‘quvchining ism-familiyasi, sinfi, shaxsiy fotosurati aks etadi.
Mundarija	Albomning tarkibiy qismlari, mavzu nomlari va ularning betlari ko‘rsatiladi.
“Men tanlagan kasb haqida”	Tanlab olingan kasb yoki hunar haqida o‘quvchi tomonidan yozilgan matn keltiriladi.
“So‘zlar sandiqchasi”	Tanlangan sohaga oid bo‘lgan so‘zlar, so‘z birikmalari hamda atamalar izohi bilan bayon etiladi.
“Suratlar so‘zlaganda”	Yoritilayotgan kasbning mazmuniga mos bo‘lgan, uning o‘ziga xos taraflarini ochib beruvchi turli suratlardan iborat kollaj yaratiladi.
“Maktub”	Mazkur kasb-hunar sohasida muvaffaqiyatga erishgan yoki uzoq yildan beri faoliyat olib borayotgan shaxsga maktub yoziladi.

O‘quvchilarning o‘quv-loyihaviy faoliyati quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1-bosqich – loyihaga kirish. Mazkur bosqichda asosan loyiha ishi bilan bog‘liq tashkiliy masalalar amalga oshiriladi. Dastlab o‘quvchilarni loyiha ishiga olib kirish, ularni qiziqtirish maqsadida so‘rovnoma o‘tkaziladi. So‘rovnoma savollari quyidagi ko‘rinishda tuzilishi mumkin:

1. Qanday sohalarga qiziqasiz? Maktabni bitirgach, qaysi yo‘nalish bo‘yicha o‘qishni davom ettirmoqchisiz?

2. Bolalik paytlaringizda kim bo‘lishni orzu qilgansiz?

3. Kelajakda qaysi kasb egasi sifatida o‘zingizni tasavvur qilasiz?

4. Nima uchun aynan ushbu kasbni tanlamoqchisiz?

5. Tanlovingizga boshqa shaxslarning ta’siri bormi (ota-onangiz, do‘stlaringiz, boshqa yaqin qarindoshlaringiz...)?

6. O‘z kasbingiz bo‘yicha malakali mutaxassis bo‘lish uchun nimalar qilishim zarur deb hisoblaysiz?

7. Inson uchun asosiy mutaxassisligidan tashqari qo'shimcha hunarlar ham kerak deb hisoblaysizmi? Javobingizni izohlang.

8. Tanlagan sohangizda faol ishlatiladigan so'zlar, atamalarni bilasizmi? Misollar keltiring.

So'rovnomanini to'ldirish uchun 10 daqiqa vaqt belgilanadi va yig'ib olinadi. Shundan so'ng o'quvchilarga loyiha ishining maqsad, vazifalari, davomiyligi, amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Loyiha ishining natijasi qanday ko'rinishda bo'lishi zarurligi, unga qo'yiladigan talablar, baholash mezonlari tushuntiriladi.

2-bosqich – loyiha ishi bo'yicha asosiy topshiriqlarni berish. O'quvchilarga birinchi bosqichda berilgan matn yozib kelish vazifasi tekshiriladi. Matnlar birgalikda tahlil qilinadi, xato va kamchiliklar ustida ishlanadi.

"Men tanlagan kasb" albomining 2-qismini bajarish uchun tayyorgarlik ko'riladi, zarur ko'rsatmalar beriladi. Kasb-hunar leksikasi haqida qisqacha nazariy ma'lumotlar eslatib o'tiladi. Albomning bu qismida o'quvchilar o'zlari tanlagan kasbga oid atamalar, shu sohada faol ishlatiladigan so'zlarni yig'ib, izohli lug'at ko'rinishida yozib chiqishlari lozim.

3-bosqich – mustaqil tadqiqotchilik faoliyati. O'quvchilar tayyorlayotgan mahsulotlari ustida ishlashni davom ettiradilar. Ijodiy albomning 3-qismida o'quvchilar kasbga oid turli rasmlarni o'zida to'plagan fotokollaj tayyorlashlari ko'zda tutilgan edi. Rasmlar tanlangan kasbning mazmunini ochib berishga xizmat qilishi hamda ular ostiga izoh yozishlari zarurligi eslatib o'tiladi. O'quvchilar fotokamera orqali tushirilgan, gazeta, jurnallardan qirqib olingan suratlardan foydalanishlari yoki rasmlarni qo'lda chizishlari mumkin.

4-bosqich – mustaqil tadqiqotchilik faoliyati davom etadi. Keyingi qadamga o'tishdan oldin, avvalgi bosqichda bajarilgan ishlar tekshirib olinadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

"Men tanlagan kasb" albomining so'nggi qismi maktub yozishdan iborat edi. Topshiriqni bajarish sharti o'quvchilarga batafsil tushuntiriladi.

5-bosqich – taqdimotga tayyorgarlik. Loyiha ishi yakunlanib, taqdimotga tayyorgarlik ishlari boshlanadi. O'quvchilar ishdagi mavjud kamchiliklarni tuzatish, albom dizayni ustida ishlash, muqova, sahifalarni bezatish, taqdimot uchun nutq tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.

6-bosqich – loyiha taqdimoti. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy albomlar taqdimoti o'tkaziladi. Yutuq va kamchiliklar birgalikda tahlil qilinadi, loyiha ishi baholanadi. Eng yaxshi ishlar e'tirof etiladi hamda rag'batlantiriladi. Shuningdek, loyihaga kirish bosqichida o'quvchilardan olingan so'rovnomalarni tahlil qilish, loyiha ishini bajarish davomida tanlagan kasblari bo'yicha qanday yangi ma'lumotlarni bilib olganlari haqida suhbat o'tkazish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Mazkur loyiha ishi o'quvchilar tomonidan juda yaxshi qabul qilindi, loyihani o'quvchilar qiziqish va faollik bilan bajardilar, talab etilgan mahsulotni tayyorlashda o'z kreativliklarini namoyon qildilar. Yig'ib olingan loyiha ishlari shakliy-mazmunijihatdan tahlil qilinib, belgilangan mezonlar asosida baholandi. Natijalar

tadqiqot ishida aks ettirildi. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida loyihaga asoslangan topshiriqlar bilan ishlash til ta'limini samarali tashkil etilishida alohida ahamiyatga ega. Tajriba-sinov jarayoni davomida o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatlarini to'g'ri tashkillashtirish bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. – 424 b.
2. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – 340 b.
3. <https://education.stateuniversity.com/pages/2337/Project-Method.html>